

20-Iyun, 2026-yil

**SOVET TARIXSHUNOSLIGIDA AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRI
TALQINLARI: MAFKURAVIY PARADIGMA VA MANBASHUNOSLIK
MEROSINI TANQIDIY QAYTA O‘QISH**

Abdurashidov Ilhomjon Bahtiyorjon o‘g‘li

Oriental universiteti magistranti

Annotatsiya. Maqolada sovet tarixshunosligida Amir Temur va Temuriylar davri talqinlarining metodologik xususiyatlari tahlil qilindi. Tadqiqotda sovet davri ilmiy merosi faktik-manbashunoslik natijalari va mafkuraviy baholar qatlamlariga ajratildi. Natijada sovet davri adabiyotlarini tanqidiy qayta o‘qish, ilmiy fakti ideologik talqindan ajratish va birlamchi manbalarni zamonaviy tarixiylik hamda xolislik mezonlari asosida qayta baholash algoritmi taklif etildi.

Kalit so‘zlar: Amir Temur, Temuriylar, sovet tarixshunosligi, manba tanqidi, Ibrohim Mo‘minov, V.V. Bartold, Zafarnoma, Ibn Arabshoh, Klavixov.

Abstract. The article analyzes the methodological features of Soviet historiographical interpretations of Amir Temur and the Timurid period. It distinguishes factual source-study achievements from ideological assessments and proposes a critical rereading algorithm based on historicism, objectivity and comparative source criticism.

Keywords: Amir Temur, Timurids, Soviet historiography, source criticism, Ibrohim Muminov, V.V. Barthold, Zafarnama, Ibn Arabshah, Clavijo.

KIRISH

Sovet tarixshunosligida Amir Temur va Temuriylar davri talqinlari murakkab va ziddiyatli ilmiy hodisa sifatida namoyon bo‘ladi. Bir tomondan, ushbu davrda Sharq qo‘lyozmalarini aniqlash, kataloglashtirish, tarjima qilish, tarixiy geografiya, arxeologiya va numizmatika materiallarini ilmiy muomalaga kiritish borasida muayyan yutuqlarga erishildi. Ikkinchi tomondan, tarixiy shaxs va davrlarni baholashda sinfiylik, partiyaviylik va marksistik-lenincha metodologiya ustuvor bo‘lgani sababli Amir Temur ko‘pincha “feodal hukmdor”, “bosqinchi sarkarda” yoki “harbiy yurishlar tashkilotchisi” kabi tor ideologik kategoriyalar orqali talqin qilindi.¹¹¹²

Mazkur mavzuning dolzarbligi sovet davri tarixshunosligini mexanik inkor qilish yoki to‘liq qabul qilish emas, balki uni tanqidiy qayta o‘qish zarurati bilan belgilanadi. Chunki sovet davrida yaratilgan ilmiy meros ikki qatlamdan iborat: birinchisi — faktik, matnshunoslik va manbashunoslik natijalari; ikkinchisi esa shu faktlarga berilgan ideologik talqin. Bugungi tarixshunoslik oldidagi asosiy vazifa ana shu ikki qatlamni farqlash, ilmiy

11 Yakubovskiy A.Yu. Timur: Opyt kratkoy xarakteristiki. – Moskva–Leningrad, 1946; Novoseltsev A.P. Ob istoricheskoy otsenke Temura // Voprosy istorii. – 1973. – №2.

12 Bartold V.V. Sochineniya. T. II. Ch. 2. – Moskva: Nauka, 1964; Lunin B.V. Istoriografiya obshchestvennykh nauk v Uzbekistane. – Toshkent: Fan.

dalilni siyosiy bahodan ajratish va Temuriylar davrini ko‘p manbali tahlil asosida qayta baholashdan iborat.

Maqolaning maqsadi sovet tarixshunosligida Amir Temur va Temuriylar davriga munosabatning metodologik xususiyatlarini tahlil qilish, sovet davrida qayta o‘rganilgan manbalar va ilmiy natijalarning ahamiyatini aniqlash hamda zamonaviy manbashunoslik uchun tanqidiy qayta o‘qish algoritmini taklif etishdir. Tadqiqotda tarixiylik, qiyosiy tahlil, manba tanqidi, tarixshunoslik monitoringi va metodologik dekonstruksiya usullaridan foydalanildi.¹³

ADABIYOTLAR TAHLILI

Adabiyotlar tahlilida avvalo V.V. Bartold, A.Yu. Yakubovskiy, B.V. Lunin kabi tadqiqotchilar merosi alohida o‘rin tutadi. Ular Temuriylar davriga oid yozma manbalar, tarixiy geografiya va mintaqaviy jarayonlarni ilmiy muomalaga kiritishda muhim ishlarni amalga oshirgan. Shu bilan birga, ularning xulosalari sovet ilmiy muhiti doirasida, o‘sha davrning nazariy va mafkuraviy chegaralari ta’sirida shakllanganini hisobga olish lozim.¹⁴

Sovet davri tadqiqotlarida Temur shaxsi ko‘p hollarda harbiy yurishlar va feodal munosabatlar kontekstida yoritildi. Bunday yondashuv Temuriylar davrining ichki boshqaruv mexanizmi, diplomatik aloqalari, shaharsozlik tajribasi, madaniy homiylik, ilm-fan va san’at rivojiga qo‘shgan hissasini ikkinchi darajaga surib qo‘ydi. Holbuki, birlamchi manbalar Temur faoliyatini faqat urushlar bilan emas, balki markazlashgan davlat qurilishi, siyosiy barqarorlik, savdo yo‘llari xavfsizligi va xalqaro diplomatiya bilan ham bog‘lashni talab qiladi.

Ibrohim Mo‘minovning 1968-yilda nashr etilgan “Amir Temurning O‘rta Osiyo tarixida tutgan o‘rni va roli” risolasi sovet tarixshunosligida muhim metodologik burilish bo‘ldi. Olim Amir Temurni faqat bosqinchilik mezoni bilan emas, balki Movarounnahrda siyosiy tarqoqlik, markazlashgan davlat ehtiyoji, iqtisodiy va madaniy hayot rivoji nuqtai nazaridan tahlil qilishga harakat qildi. Bu yondashuv sovet mafkurasi hukmron bo‘lgan sharoitda tarixiy shaxsni xolisroq baholashga qaratilgan jasoratli ilmiy urinish edi.¹⁵

Biroq 1970-yillarda Amir Temur shaxsiga nisbatan salbiy munosabat yana kuchaydi. A.P. Novoseltsevning “Ob istoricheskoy otsenke Temura” maqolasi Temur shaxsi va davlatchilik faoliyatini ijobiy talqin qilishga nisbatan ehtiyotkorlik muhitini kuchaytirgan omillardan biri sifatida talqin qilinadi. Bu hol sovet davrida tarixiy mavzular, ayniqsa milliy davlatchilik va tarixiy qahramonlar masalasi siyosiy nazorat doirasida qolganini ko‘rsatadi.¹⁶

13 Maqola metodologiyasi muallif tomonidan tarixiylik, xolislik, qiyosiy manba tanqidi va tarixshunoslik monitoringi tamoyillari asosida ishlab chiqildi.

14 Bartold V.V. *Turkestan v epokhu mongolskogo nashestviya*. – Moskva: Nauka, 1963; Lunin B.V. *Istochnikovedenie Sredney Azii*. – Toshkent: Fan, 1986.

15 Mo‘minov I. *Amir Temurning O‘rta Osiyo tarixida tutgan o‘rni va roli*. – Toshkent: Fan, 1968.

16 Novoseltsev A.P. *Ob istoricheskoy otsenke Temura* // *Voprosy istorii*. – 1973. – №2.

**1-jadval. Sovet tarixshunosligida Amir Temur obrazining talqin mezonlari
(muallif ishlanmasi)¹⁷**

Mezon	Sovet davridagi holat	Zamonaviy baholash
Metodologiya	Sinfiy-ideologik yondashuv ustun	Fakt va bahoni ajratish zarur
Manbashunoslik	Qo‘lyozma, tarjima va katalog ishlari rivojlandi	Matnshunoslik merosi qadrlanadi
Shaxs talqini	Temur ko‘pincha “feodal hukmdor” obrazida ko‘rsatildi	Ko‘p qirrali tarixiy shaxs sifatida baholanadi
Madaniyat masalasi	Ko‘p hollarda ikkinchi darajaga surildi	Temuriylar renessansi kontekstida qayta o‘rganiladi


Manba: muallif tomonidan tadqiqot mazmuni va manbashunoslik yondashuvi asosida ishlab chiqildi.

METODOLOGIYA

Metodologik tahlil shuni ko‘rsatadiki, sovet tarixshunosligidagi asosiy muammo manbalar yetishmasligida emas edi. Aksincha, Amir Temur davri bo‘yicha manbalar nisbatan ko‘p bo‘lgan. Muammo ularni qaysi metodologik kalit orqali o‘qishda edi. Agar manba faqat sinfiy kurash yoki feodal ekspansiya doirasida talqin qilinsa, uning diplomatik, madaniy, boshqaruv va ramziy qatlamlari ko‘rinmay qoladi. Shu sababli bugungi tadqiqot sovet davri matnlarini qayta o‘qishda fakt, metod va mafkura qatlamlarini ajratishi zarur.

Ushbu maqolada metodologik asos sifatida tarixiylik, xolislik, qiyosiy manba tanqidi, tarixshunoslik monitoringi va metodologik dekonstruksiya qo‘llanildi. Tarixiylik tamoyili matnni yaratilgan davr sharoiti bilan bog‘lashni, xolislik esa manbadagi fakt va bahoni farqlashni talab qiladi. Qiyosiy tahlil Shomiy, Yazdiy, Ibn Arabshoh, Klavixov va sovet davri tadqiqotchilarining qarashlarini bir-biriga solishtirish imkonini beradi.¹⁸

Sovet tarixshunosligini tanqidiy qayta o‘qish algoritmi



¹⁷ Jadval muallif tomonidan sovet tarixshunosligi va zamonaviy manbashunoslik mezonlarini qiyoslash asosida tuzildi. Mualliflik huquqi saqlanadi.

¹⁸ Nizomiddin Shomiy. Zafarnoma; Sharafiddin Ali Yazdiy. Zafarnoma; Ibn Arabshoh. Ajoyib al-ma'qdur fi tarixi Taymur; Klavixov R.G. Samarqandga Amir Temur saroyiga sayohat kundaligi.

1-chizma. Sovet tarixshunosligini tanqidiy qayta o‘qish algoritmi (muallif ishlanmasi)¹⁹

Manba: muallif ishlanmasi.


NATIJALAR

Natijalar qismida sovet tarixshunosligini uch yo‘nalishda baholash taklif etiladi. Birinchi yo‘nalish — matnshunoslik merosi: qo‘lyozmalarni aniqlash, kataloglashtirish va ayrim manbalarni nashrga tayyorlash. Ikkinchi yo‘nalish — tarixiy-geografik va arxeologik ma‘lumotlar: shaharlar, yo‘llar, zarbxonalar va moddiy madaniyat dalillarini o‘rganish. Uchinchi yo‘nalish — ideologik talqinlar: Temur shaxsini sinfiy baholash, madaniy yutuqlarni ikkinchi darajaga surish va davlatchilik tajribasini yetarlicha ochmaslik.

Birlamchi yozma manbalarni tanqidiy qayta o‘qish sovet tarixshunosligidagi cheklovlarni bartaraf etish uchun muhimdir. Nizomiddin Shomiy va Sharafiddin Ali Yazdiy “Zafarnoma”lari saroy tarixnavisligi xususiyatiga ega bo‘lsa-da, ular siyosiy voqealar ketma-ketligi, davlat boshqaruvi va hukmdorlik ideologiyasini tushinishda tayanch manbalardir. Ibn Arabshoh tanqidiy-polemik ruhdagi muqobil manba sifatida saroy manbalaridagi ideallashtirishni nazorat qilish imkonini beradi. Klavixo xabarlariga esa tashqi kuzatuv orqali diplomatik va shahar hayoti tafsilotlarini ko‘rsatadi.²⁰2122

1-diagramma. Talqin mezonlari bo‘yicha qiyosiy ko‘rsatkich (muallif ishlanmasi)²³

Manba: muallif ishlanmasi.



19 Chizma muallif tomonidan maqolaning metodologik konsepsiyasi asosida ishlab chiqildi. Mualliflik huquqi saqlanadi.

20 Klavixo R.G. Samarqandga Amir Temur saroyiga sayohat kundaligi. – Toshkent: O‘zbekiston.

21 Ibn Arabshoh. Ajoyib al-maqdur fi tarixi Taymur. – Toshkent: Mehnat, 1992.

22 Nizomiddin Shomiy. Zafarnoma. – Toshkent: O‘zbekiston; Sharafiddin Ali Yazdiy. Zafarnoma. – Toshkent: Sharq.

23 Diagramma muallif tomonidan maqoladagi qiyosiy tahlil natijalari asosida tuzildi. Ko‘rsatkichlar baholovchi-ilmiy model sifatida berilgan. Mualliflik huquqi saqlanadi.

**2-jadval. Tanqidiy qayta o‘qish jarayonining amaliy bosqichlari (muallif
ishlanmasi)²⁴**

Bosqich	Mazmuni	Kutiladigan ilmiy natija
1	Matndagi faktlarni ajratish	Daliliy baza aniqlanadi
2	Foydalanilgan birlamchi manbalarni tekshirish	Manba ishonchliligi baholanadi
3	Ideologik til birliklarini aniqlash	Mafkuraviy qatlam ko‘rinadi
4	Mustaqil manbalar bilan qiyoslash	Xolislik darajasi oshadi
5	Zamonaviy tarixshunoslik asosida xulosa	Qayta baholangan ilmiy talqin shakllanadi

Manba: muallif tomonidan tadqiqot mazmuni va manbashunoslik yondashuvi asosida ishlab chiqildi.

MUHOKAMA

Muhokama jarayonida sovet tarixshunosligini baholashda muvozanat zarurligi ayon bo‘ladi. Uni to‘liq inkor etish ilmiy jihatdan xato, chunki ko‘plab qo‘lyozmalar, tarjimalar va faktik ma‘lumotlar aynan shu davrda ilmiy muomalaga kiritilgan. Ammo uni shartsiz qabul qilish ham mumkin emas, chunki ko‘plab xulosalar davr mafkurasi bilan chegaralangan. Demak, to‘g‘ri yondashuv — manbashunoslik merosini saqlash, lekin ideologik baholarni zamonaviy tarixiylik, xolislik va qiyosiy tahlil mezonlari asosida qayta ko‘rib chiqishdir.


Temuriylar davrining madaniy va bunyodkorlik jihatlari sovet talqinlarida ko‘pincha yetarlicha yoritilmagan. Samarqandning yirik siyosiy va madaniy markazga aylanishi, saroy atrofida ilm-fan va san‘at namoyandalarining jamlanishi, me‘moriy obidalar, savdo aloqalari va diplomatik muloqotlarning faollashuvi Temuriylar davrini faqat harbiy yurishlar tarixiga tenglashtirib bo‘lmasligini ko‘rsatadi. Shu nuqtada yozma manbalar moddiy dalillar bilan qiyoslanishi zarur.

Tanqidiy qayta o‘qish algoritmi besh bosqichdan iborat bo‘lishi mumkin. Birinchi bosqichda sovet davri matnidagi faktlar ajratiladi. Ikkinchi bosqichda foydalanilgan birlamchi manbalar aniqlanadi. Uchinchi bosqichda muallifning metodologik pozitsiyasi va ideologik til birliklari belgilanadi. To‘rtinchi bosqichda shu faktlar mustaqil manbalar bilan solishtiriladi. Beshinchi bosqichda zamonaviy tarixshunoslik asosida qayta xulosa chiqariladi. Ushbu model sovet davri merosini inkor etmasdan, uni ilmiy nazorat ostida qayta ishlash imkonini beradi.

Sovet davrida qayta o‘rganilgan manbalar bugungi temurshunoslik uchun muhim bazadir. Biroq bu bazadan foydalanishda har bir nashrning tahririy siyosati, tarjima sifati, izohlar tizimi va davr talqinlari hisobga olinishi kerak. Masalan, birlamchi manba matni o‘zi qimmatli bo‘lishi mumkin, ammo unga berilgan kirish so‘zi yoki izohlar mafkuraviy xarakter kasb etishi ehtimoli mavjud. Shu sababli tadqiqotchi matn va talqinni alohida o‘qishi zarur.

²⁴ Jadval muallif tomonidan tanqidiy qayta o‘qish metodologiyasi asosida ishlab chiqildi. Mualliflik huquqi saqlanadi.

Mustaqillik davrida Temuriylar merosini qayta baholash modeli



**2-chizma. Mustaqillik davrida Temuriylar merosini qayta baholash modeli
(muallif ishlanmasi)²⁵**

Manba: muallif tomonidan tarixiy xotira, manba tanqidi va qiyosiy tahlil mezonlari asosida ishlab chiqildi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Maqolaning ilmiy yangiligi shundaki, unda sovet tarixshunosligi bir yoqlama rad etilmaydi, balki faktik meros, matnshunoslik natijasi va mafkuraviy baho qatlamlariga ajratilgan holda tahlil qilinadi. Bunday yondashuv Amir Temur va Temuriylar tarixini zamonaviy manbashunoslik mezonlari asosida qayta o‘rganish uchun metodologik imkoniyat yaratadi. Ayniqsa, Shomiy, Yazdiy, Ibn Arabshoh, Klavixo, Xondamir va boshqa manbalarni o‘zaro solishtirish tarixiy voqelikni nisbatan xolis tiklash imkonini beradi.

Xulosa qilib aytganda, sovet tarixshunosligida Amir Temur va Temuriylar davri talqinlari ziddiyatli xususiyatga ega: unda bir tomondan, muhim manbashunoslik va matnshunoslik yutuqlari mavjud, ikkinchi tomondan, ularni cheklab turgan mafkuraviy paradigma ham mavjud. Zamonaviy tadqiqot mazkur merosni tanqidiy qayta o‘qishi, fakt va bahoni ajratishi, birlamchi manbalarni funksional, janriy va tarixiy kontekstda solishtirishi lozim. Faqat shunday yondashuv Amir Temur va Temuriylar davrini siyosiy stereotiplardan xoli, ilmiy asoslangan va ko‘p qirrali tarixiy hodisa sifatida talqin qilish imkonini beradi.

Takliflar: birinchidan, sovet davri tadqiqotlarida berilgan faktik ma’lumotlar va mafkuraviy xulosalarni alohida ajratish; ikkinchidan, birlamchi manbalarni saroy, tanqidiy, diplomatik va moddiy dalillar asosida qiyosiy tekshirish; uchinchidan, I. Mo‘minov merosini mustaqillik davri temurshunosligining nazariy ildizlari sifatida maxsus o‘rganish; to‘rtinchidan, sovet davri nashrlarining izohli bibliografik katalogini tuzish maqsadga muvofiq.

TANQIDIY QAYTA O‘QISHNING ILMIY-AMALIY AHAMIYATI

Sovet tarixshunosligini tanqidiy qayta o‘qish jarayonida tadqiqotchi ikki xatodan saqlanishi kerak. Birinchi xato — sovet davrida yaratilgan barcha ishlarni mafkuraviy deb

²⁵ Chizma muallif tomonidan mustaqillik davrida Temuriylar merosini qayta baholash jarayonining ilmiy-mantiqiy modelini ifodalash uchun ishlab chiqildi. Mualliflik huquqi saqlanadi.

rad etish; ikkinchi xato — ularni tarixiy haqiqatning yakuniy shakli sifatida qabul qilish. To‘g‘ri yo‘l faktik material, manbashunoslik topilmasi, tarjima, izoh va mafkuraviy bahoni alohida qatlamlarga ajratishdir.

Masalan, qo‘lyozmaning nashrga tayyorlanishi yoki katalogga kiritilishi ilmiy yutuq hisoblanadi. Ammo shu nashrga yozilgan kirish maqolasi yoki xulosada Amir Temur faoliyati biryozlama sinfiy kategoriyalar bilan baholangan bo‘lishi mumkin. Bunday holatda tadqiqotchi matnshunoslik natijasidan foydalanadi, lekin ideologik izohni mustaqil manbalar bilan tekshiradi. Bu usul zamonaviy manba tanqidining asosiy talabidir.

Sovet davri tarixshunosligidagi muammolardan biri tarixiy shaxsni davr sharoiti bilan yetarli bog‘lamaslik edi. Amir Temurning markazlashgan davlat qurish harakati XIV asr Movarounnahridagi siyosiy tarqoqlik, mahalliy hukmdorlar o‘rtasidagi kurashlar va savdo yo‘llari xavfsizligi masalalari bilan bog‘liq holda o‘rganilishi kerak. Shundagina harbiy yurishlar ham, siyosiy ittifoqlar ham, diplomatik munosabatlar ham kengroq tarixiy kontekstda anglashiladi.

Birlamchi manbalarning o‘zaro nazorati sovet davri talqinlaridagi soddalashtirishlarni bartaraf etadi. Saroy manbalari voqeani hukmdorlik g‘oyasi nuqtai nazaridan yoritadi; tanqidiy arab manbalari esa boshqa siyosiy muhit qarashlarini beradi; Yevropa elchilari tashqi kuzatuv imkoniyatini yaratadi; tangalar va bitiklar esa yozma xabarlarni moddiy dalil orqali tekshiradi. Shu to‘rt qatlam birgalikda qo‘llanganda tarixiy xulosa mustahkam bo‘ladi.

Maqola natijalaridan tarixshunoslik fanini o‘qitishda ham foydalanish mumkin. Talabalarga sovet davri matnini berib, undagi fakt, baho, ideologik tushuncha va foydalanilgan manbalarni alohida ajratish topshirig‘i berilsa, ular tarixiy matnni passiv o‘qishdan faol tahlil qilishga o‘tadilar. Bu esa VAK talablariga mos ravishda tadqiqotchining mustaqil ilmiy fikrlashini shakllantiradi.

Shuningdek, sovet tarixshunosligidagi I. Mo‘minov merosini alohida metodologik hodisa sifatida o‘rganish zarur. Chunki u sovet mafkurasi kuchli bo‘lgan sharoitda Amir Temur shaxsiga nisbatan xolisroq yondashuvni ilgari surdi. Ushbu holat milliy tarixshunoslikda tanqidiy fikr, ilmiy jasorat va manbaga asoslangan baholash madaniyati mavjud bo‘lganini ko‘rsatadi.

3-jadval. Sovet davri ilmiy merosini baholash mezonlari (muallif ishlanmasi)²⁶

Qatlam	Baholash mezonlari	Tadqiqotchining vazifasi
Faktik material	Ma’lumotning manbaga tayanishi	Faktni saqlash va tekshirish
Matnshunoslik	Qo‘lyozma, tarjima, nashr sifati	Nashr tarixini aniqlash
Metodologiya	Qaysi nazariya asosida talqin qilingan?	Metod chegarasini ko‘rsatish
Mafkuraviy baho	Sinfiy va siyosiy tushunchalar	Bahoni faktlardan ajratish

26 Jadval muallif tomonidan sovet davri ilmiy merosini qatlamli baholash yondashuvi asosida tuzildi. Mualliflik huquqi saqlanadi.

	darajasi	
Zamonaviy qayta talqin	Birlamchi manbalar bilan qiyoslash	Xolis xulosa shakllantirish

Manba: muallif tomonidan maqola metodologiyasi asosida ishlab chiqildi.

ZAMONAVIY TARIXSHUNOSLIK UCHUN METODOLOGIK NATIJALAR

Maqolaning metodologik natijasi shundan iboratki, sovet davri tarixshunosligi tarixiy jarayonni tushunishda mutlaqo tashlab yuboriladigan manba emas, balki tanqidiy tahlil qilinadigan historiografik qatlamdir. Bu qatlam orqali nafaqat Temuriylar davri haqidagi faktlar, balki XX asr ilmiy tafakkurining cheklovlari, ideologik tili va tarixiy shaxsga munosabat modeli ham o‘rganiladi.

Zamonaviy tadqiqotchining vazifasi sovet tarixshunosligini inkor qilishdan iborat emas. Aksincha, u sovet davrida to‘plangan qo‘lyozma, nashr, katalog, tarjima va arxeologik dalillardan foydalanadi, biroq ularni o‘sha davr mafkuraviy xulosalaridan ajratadi. Bu ilmiy usul tarixshunoslikda izchillikni saqlaydi va ayni paytda yangi xolis baho berish imkonini yaratadi.

Amir Temur va Temuriylar davri bo‘yicha keyingi tadqiqotlarda sovet davri nashrlarini qayta tekshirish, ularni birlamchi manbalar bilan qiyoslash va izohli sharhlar tayyorlash dolzarb vazifa bo‘lib qolmoqda. Ayniqsa “Zafarnoma”lar, Ibn Arabshoh, Klavixo, Xondamir va Hofizi Abru xabarlarini bir jadvalda solishtirish tarixiy voqealarning saroy, tanqidiy va tashqi kuzatuv talqinlarini ajratishga yordam beradi.

Shu asosda maqola nafaqat sovet tarixshunosligidagi cheklovlarni ko‘rsatadi, balki undan qanday ilmiy foydalanish mumkinligini ham asoslaydi. Bu jihat uning amaliy ahamiyatini kuchaytiradi: tarix yo‘nalishidagi magistrantlar sovet davri matnlarini o‘qishda fakt, metod, baho va mafkuraviy kontekstni ajratish ko‘nikmasiga ega bo‘ladilar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR VA ELEKTRON MANBALAR:

1. Bartold V.V. Sochineniya. Tom II. Chast 2. Raboty po otdelnym problemam istorii Sredney Azii. – Moskva: Nauka, 1964.
2. Yakubovskiy A.Yu. Timur: Opyt kratkoy xarakteristiki. – Moskva–Leningrad, 1946.
3. Lunin B.V. Istorioografiya obshchestvennykh nauk v Uzbekistane. – Toshkent: Fan, turli nashrlar.
4. Mo‘minov I. Amir Temurning O‘rta Osiyo tarixida tutgan o‘rni va roli. – Toshkent: Fan, 1968.
5. Novoseltsev A.P. Ob istoricheskoy otsenke Temura // Voprosy istorii. – 1973. – №2.
6. Ibn Arabshoh. Ajoyib al-maqdur fi tarixi Taymur. – Toshkent: Mehnat, 1992.
7. Nizomiddin Shomiy. Zafarnoma. – Toshkent: O‘zbekiston, turli nashrlar.
8. Sharafiddin Ali Yazdiy. Zafarnoma. – Toshkent: Sharq, turli nashrlar.
9. Klavixo R.G. Samarqandga Amir Temur saroyiga sayohat kundaligi. – Toshkent: O‘zbekiston, turli nashrlar.

20-Iyun, 2026-yil

10. Roemer H.R. Timur in Iran // The Cambridge History of Iran. Vol. 6. – Cambridge: Cambridge University Press, 1986.

11. Subtelny M. Timurids in Transition: Turko-Persian Politics and Acculturation in Medieval Iran. – Leiden: Brill, 2007.

12. Manz B.F. Tamerlane and the Symbolism of Sovereignty // Iranian Studies. – 1988. – Vol. 21.

13. UNESCO rasmiy materiallari: Amir Temur tavalludining 660 yilligini nishonlashga oid xalqaro tadbirlar.

14. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti rasmiy sayti: Temuriylar davri va Uyg‘onish jarayoni bo‘yicha nutq va ma‘ruzalar.